

TOPONIMLAR (JOY NOMLARI)NI ILMIY TADQIQ ETILISHNING NAZARIY MUAMMOLARI

Anorqulov Sanjar,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Nemis filologiyasi kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

s.anorqulov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada toponimlar (joy nomlari)ni ilmiy tadqiq etishning nazariy muammolari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda onomastika va toponimika fanlarining shakllanishi, ularning lingvistik, tarixiy, etimologik hamda lingvokulturologik jihatlari yoritiladi. Shuningdek, toponimlarning semantik, morfologik, fonetik va derivatsion xususiyatlari, ularning ijtimoiy-madaniy hamda siyosiy omillar ta'sirida shakllanish jarayoni ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada toponimlarning tasnifi, etimologik rekonstruksiya muammolari, transliteratsiya va standartlashtirish masalalari, shuningdek zamonaviy metodologik yondashuvlar, jumladan GIS texnologiyalari va raqamli lingvistika imkoniyatlari tahlil qilinadi. Toponimlar til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik bo'lib, ularni o'rganish kompleks va ko'p fanli yondashuvni talab etadi.

Kalit so'zlar: toponimika, onomastika, lingvokulturologiya, etimologiya, transliteratsiya, til va madaniyat.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются теоретические проблемы научного изучения топонимов (географических названий). В исследовании рассматривается становление ономастики и топонимики, а также освещаются их лингвистические, исторические, этимологические и лингвокультурологические аспекты. Кроме того, на научной основе анализируются семантические, морфологические, фонетические и деривационные особенности топонимов, а также процессы их формирования под влиянием социально-культурных и политических факторов. В статье также рассматриваются вопросы классификации топонимов, проблемы этимологической реконструкции, а также вопросы транслитерации и стандартизации. Особое внимание уделяется современным методологическим подходам, включая использование GIS-технологий и возможностей цифровой лингвистики. Топонимы представляют собой важные лингвистические единицы, отражающие сложные взаимоотношения между языком и культурой, и их изучение требует комплексного и междисциплинарного подхода.

Ключевые слова: топонимика, ономастика, лингвокультурология, этимология, транслитерация, язык и культура.

Abstract. This article comprehensively analyzes the theoretical problems of scientific research of toponyms (place names). The study covers the formation of the disciplines of onomastics and toponymy, their linguistic, historical, etymological and linguoculturological aspects. Also, the semantic, morphological, phonetic and derivational properties of toponyms, the process of their formation under the influence of socio-cultural and political factors are considered on a scientific basis. The article analyzes the classification of toponyms, problems of etymological reconstruction, issues of transliteration and standardization, as well as modern methodological approaches, including GIS technologies and the possibilities of digital linguistics. Toponyms are an important linguistic unit that reflects the complex relationship between language and culture, and their study requires a comprehensive and multidisciplinary approach.

Keywords: toponyms, onomastics, linguoculturology, etymology, transliteration, language and culture.

Kirish. Onomastika tilshunoslikning nomlar (shaxs, joy hodisa, obyekt nomlari)ni ularning lingvistik, tarixiy, madaniy va semiotik jihatlarini o'rganuvchi sohasi bo'lib, bu fanning ilmiy asoslanishi zamonaviy tilshunoslik fanining shakllanish davri (XIX-XX) asr bilan bog'liq holda dastlab filologiya va tarixiy lingvistika, keyinchalik geografiya va adabiyot fanlari doirasida rivojlandi.

Onomastika atamasi ikki ma'noda ishlatiladi. Avvalo, u tilshunoslik tarmog'ini sifatida atoqli otlar, ularning paydo bo'lishi, tarixiy shakllanishi hamda shu jarayonda nomlarning transformatsiyasini tadqiq etadi. Shuningdek, onomastika tilda mavjud barcha atoqli otlar jamlanmasini ifodalash uchun ham qo'llaniladi va u *onimiya* yoki *proprial leksika* kabi a'tamalar bilan ham ataladi. Lotin tilidan olingan *proprial* so'zi atab qo'yilgan, atoqli degan ma'nolarni anglatadi va atoqli otlar proper nouns/names shaklida ishlatiladi.

Adabiyotlar tahlili. Onomastik birliklarning bugungi kunda nutqda qo'llanilishi, ma'lum joy hamda tillarda tarqalishi, ularning tuzilishiga xos xususiyatlari, til va nutqdagi, adabiy va shevalarda qo'llaniluvchi atoqli otlarning paydo bo'lishi, nomlanish tamoyillari, turli-tuman o'zgarishlar asosida shakllanishidagi o'ziga xosliklar va shu kabi jihatlar nazariy onomastika doirasida o'rganiladi. Badiiy onomastikaning asosiy vazifasi badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish hisoblanadi.

Onomastika, shuningdek atoqli nomlarning morfoligik, fonetk, semantik, derivatsion (yasalish, shakllanish), etimologik kabi jihatlarini ham tilshunoslikning areal, qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullaridan foydalangan holda tahlil qildi. Amaliy onomastika esa xorijiy tillarga tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, mansub nomlarning transliteratsiyasi, transkripsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishga ko'ra), nom berish va nomlarni o'zlashtirish, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish masalalari bilan ham shug'ullanadi. Onomastika interdissiplinar fan sifatida adabiyotshunoslik, manbashunoslik, geografiya, tarix, etnografiya, demografiya kabi fan tarmoqlari bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi..

Nomshunoslik bo'yicha olib borilgan dastlabki ilmiy tadqiqot ishlari nomlarning tarixiy-etimologik jihatlarini bilan chegaralangan bo'lib, ularda nomlarning etimologik ma'nosi va ularning nom berish motivlari aniqlashga asosiy ahamiyat kasb etgan. Mazkur diaxron aspektda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy kamchiligi esa tahlilga tortilgan nomlarning aniq bir kontekstdan olinmaganligi va shu asosda ularning inson muloqot nutqidan izolyatsiya qilingan fenomen sifatida tadqiq etilmaganligidadir. Shu sababli ham nomlarning sinxron aspektidagi xususiyatlari tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgan.

XX asr o'rtalariga kelib, A.Bax onomastik tadqiqotlar faqat tarixiy va etimologik tadqiqotlar bilan cheklanmay, aslida onomastikaning tadqiqot sohasining kengroq

ekanligini va u nafaqat lingvistik, tarixiy-etimologik, geografik muammolarni, balki ularning sotsiologik va psixologik jihatlarini ham o'rganishini ta'kidlaydi (Bach. A). Ko'ringanidek, nemis olimi A.Bax o'z davrida atoqli otlarning til va madaniyat in'ikosi sifatida kompleks xarakterga ega ekanligini va tilshunoslik, tarix, sotsiologiya, geografiya va psixologiya kabi turli fanlar kesishmasida joylashgan fan ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Faqat XX asr oxirlariga kelib nomlarning etimologik xususiyatlari bilan birga ularning lingvistik jihatlarini, jumladan nomlarning kommunikativ vazifalari, stilistik va tarjimadagi o'ziga xos jihatlarini ham sinxron aspektda tadqiq etila boshlagan.

Atoqli otlar qadim davrlardan beri olimlarning qiziqish markazida bo'lib kelmoqda. Qadimgi antik davrning Suqrot, Aflotun, Arastu kabi olimlari atoqli otlar mavzusiga murojaat qilishgan. Mazkur davrda nomlarning ma'nosi haqidagi falsafiy o'y-qarashlar muhim o'rin tutgan va shu orqali bugungi kundagi nomlarni tizimli ilmiy tadqiq etishdan farq qilgan. Atoqli ot atamsi fanga dastlab lotincha nomen prorium sifatida grek tilidan kirib kelgan.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda til, madaniyat va tafakkur – bu insoniyat sivilizatsiyasi, milliy ongning o'zaro bog'liqligi va bir-birini belgilovchi uch tayanch tushunchadir. Ularning umumiy masalasi qadimdan falsafa, sotsiologiya, psixologiya va lingvistika fanlarining kesishgan nuqtasida turadi. Har bir xalqning tili uning tafakkur tarzi va madaniyatining lingvistik ko'rinishidir. Shu bois, til faqat muloqot vositasi emas, balki milliy tafakkur va milliy madaniyatni saqlovchi ijtimoiy ong shakli sifatida ham targ'ib qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Toponimlarni tadqiq etish metodologiyasi ham yetarlicha mukammal emas. E.Murzayev toponimika fani uchun ko'p fanli yondashuv zarurligini ta'kidlab, lingvistik tahlilni tarix, geografiya, etnografiya, arxeologiya va kartografiya bilan birlashtirishni taklif qiladi. Bugungi kunda geoinformatsion tizimlar (GIS) toponimlarni fazoviy tahlil qilish, ular tarqalishining qonuniyatlarini aniqlash hamda tarixiy qatlamlarni vizual rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Ammo O'zbekistonda GIS asosidagi toponimik tadqiqotlar hali keng rivojlanmagan, mavjud ilmiy ishlarda ko'proq an'anaviy lingvistik metodlar qo'llanadi. Bunda manbalarni raqamlashtirish, toponimik korpus yaratish, nomlarni standartlashtirish va transliteratsiya masalalarida ham nazariy muammolar mavjud.

Tahlillar va natijalar. Biz tahlilga tortayotgan fan zamonaviy lingvistika so'nggi o'n yillikda tilshunoslikning bu bo'limlarini "kognitiv- madaniy- paradigma" doirasida o'rganmoqda. Bu paradigma doirasida til – inson tafakkurining ko'zgusi, madaniyat esa shu tafakkurning ijtimoiy-madaniy matndagi shakli sifatida qaraladi [Langacker, 1987; Maslova, 2004; Safarov, 2006].

Toponimlar - xalqning qadimiy tarixiy-madaniy xotirasini o'zida mujassam etgan lingvistik birliklar bo'lib, ular makon va til o'rtasidagi murakkab munosabatlar tizimini

aks ettiradi. Toponimlarni ilmiy tadqiq etish jarayonida ularning lingvistik tabiati, etimologik tarkibi, tarixiy qatlamlari, semantik xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy funksiyalari va siyosiy omillari ta'sirida shakllanishi singari ko'plab nazariy masalalar yuzaga keladi. Shu jihatdan toponimika lingvistikaning mustaqil sohasi sifatida shakllangan bo'lsa-da, uning nazariy asoslari hali ham to'liq izchil ravishda shakllanmagan, chunki toponimlar boshqa lug'aviy birliklardan ko'ra ko'proq tarixiy sharoitlar, etnik jarayonlar, siyosiy o'zgarishlar va tabiiy-geografik omillar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. V.A.Nikonovning ta'kidlashicha, toponimlar xalq tarixining eng qadimiy va ishonchli hujjatlaridan biri bo'lib, ular yordamida o'tmishdagi etnik jarayonlar, migratsiyalar va madaniy aloqalar tiklanishi mumkin. Biroq bu "hujjatlar" til, fonetika, semantika va tashqi siyosiy kuchlar ta'sirida o'z shaklini doimiy ravishda o'zgartirib borgan, bu esa tadqiqotlarda turli xil nazariy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Toponimlarning lingvistik tabiatini aniqlash tilshunoslikdagi eng murakkab nazariy masalalardan biridir. Chunki toponimlar grammatik jihatdan atoqli otlar sifatida qaralsada, ular fonetik, morfologik va semantik jihatdan oddiy nomlardan farq qiladi. A.A.Reformatskiy toponimlarni "ma'lum obyektga qat'iy birlashtirilgan, referensial vazifasi mutlaq bo'lgan nominativ birlik"² sifatida ta'riflaydi. Ya'ni, "Oqtosh", "Chortoq", "Urgut", "Nurota" kabi toponimlar muayyan obyektga bog'langan holda ishlatiladi va ularning ma'nosi aynan shu obyekt bilan aniqlanadi. Biroq bu nominativ xususiyat ularning semantik mazmunini yo'qqa chiqarib yubormaydi. Aksincha, E.Murzaev va V.Nikonovlar ta'kidlaganidek, har bir toponimning kelib chiqishida muayyan tarixiy belgi, geografik xususiyat, etnik ko'rsatkich yoki xo'jalik faoliyatiga oid ma'lumot yashiringan bo'ladi. Semantik arxaizatsiya natijasida bu ma'nolar zamonaviy nutqiy jarayonda ochiq ko'rinishda bo'lsa-da, ular lingvistik va tarixiy tahlil orqali tiklanishi mumkin.

Toponimika fanida muhim nazariy muammolardan biri - toponimlarning kelib chiqishini aniqlash, ya'ni etimologik rekonstruksiya masalasidir. Markaziy Osiyo toponimik tizimi qadimiy eroniy, turkiy, sog'diy, arabiy va mo'g'ul tillarining uzoq yillar davomida o'zaro aralashuvi natijasida shakllangan bo'lib, ularning qaysi biri substrat, qaysi biri superstrat yoki adstrat qatlam sifatida namoyon bo'lganini aniqlash murakkab ilmiy vazifadir. A.K.Matveev buni "toponimik qatlamlarning ko'p millatli tarixiy jarayonlar ta'sirida shakllanishi" bilan izohlaydi. Masalan, -kent/-qand affiksining kelib chiqishi yuzasidan turkiy manbalar bilan bir qatorda eroniy manbalar ham dalil sifatida keltiriladi. "Zarafshon", "Binkat", "Chag'oniyon", "Ohanrin", "Obi-Hayot" kabi toponimlarda esa forsiy va arabiy qatlamlar seziladi. Bu murakkab qatlamlar etimologiyani taxminiy, ehtimollik xarakteriga ega qiladi.

O'zbek tilida toponimik tadqiqotlar bo'yicha eng katta hissa qo'shganlardan biri Sh.Raxmatullaev bo'lib, u mahalliy toponimiyaning o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha

tahlil qilib, o‘zbek toponimlarida eng muhim muammo — xalq etimologiyasining haddan ziyod ta’siri ekanini alohida ta’kidlaydi. Masalan, “Qoradaryo”ni “suvining qoraligiga”, “Oqtosh”ni “toshining rangiga” bog‘lash xalq ongida mustahkam o‘rnashgan bo‘lsa-da, tarixiy-lingvistik tahlil bularning butunlay boshqa ma’noga ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shuning uchun Raxmatullaev olimlar uchun ilmiy rekonstruksiya dialektologik ma’lumotlar, tarixiy manbalar, eski xaritalar, arxeologik topilmalar va og‘zaki rivoyatlarning hammasini birgalikda qo‘llash zarurligini qayd etadi.

Toponimlarning tasnifi ham nazariy jihatdan bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki real toponimlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular semantik, geografik, morfologik, funksional va etnolingvistik belgilarni uzviy tarzda mujassamlashtiradi. “Qiziltepa”, “Oqtosh”, “Beshariq”, “Ko‘ktepa”, “Bog‘dod”, “Farg‘ona”, “Urganch” kabi toponimlarda bir vaqtning o‘zida rang, relyef, xo‘jalik faoliyati, etnik guruhlar, qabila nomlari yoki diniy-mifologik elementlar qatnashgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham V.Nikonov toponimlarni tasniflashni “ko‘p mezonli va chegaralari noaniq murakkab tizim” deb baholaydi. Bu holat yagona universal tasnif tizimini yaratish imkonini cheklaydi. O‘zbek tilidagi toponimlar ham bu murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ularda qadimgi turkiy affikslar (-tosh, -tepa, -qo‘rg‘on, -soy, -ariq), eroniy komponentlar (-rud, -deh, -ob), arabcha va mo‘g‘ulcha elementlar birgalikda uchraydi. Bu esa ularni faqat bir mezon asosida tasniflashni imkonsiz qiladi.

Toponimlarning ijtimoiy-madaniy funksiyalari ham nazariy jihatdan muhim masalalardandir. A.Potebnya tilning xalq ruhiyati bilan uzviy bog‘liqligini asoslab, toponimlarni “madaniy xotira va milliy identitetning lingvistik shakli” deb baholaydi. Joy nomlari orqali xalqning qadimiy dunyoqarashi, xo‘jalik faoliyati, diniy e’tiqodlari, mifologik tasavvurlari va migratsion harakatlari aks etadi. Masalan, “Oqmachit”, “Xo‘jaobod”, “Oqmaschit”, “Chilonzor”, “Mingchinor” kabi toponimlarda diniy, tabiatga oid va etnik mazmunlar mujassamlangan. Bu nomlar o‘zgarishi yoki yo‘qolishi jamiyatning tarixiy xotirasiga ta’sir qilishi tabiiy.

Siyosiy omillar toponimlarning o‘zgarishida alohida o‘rin tutadi. XIX–XX asrlarda Rossiya imperiyasi va sovet davri siyosiy-sotsial jarayonlari natijasida ko‘plab toponimlar yangidan nomlangan yoki o‘zgartirilgan. Mustaqillikdan keyin eski tarixiy nomlarning qayta tiklanishi esa yangi toponimik qatlamlarning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu jarayonlar ilmiy tadqiqotlarda tarixiy qatlamlarning ketma-ketligini aniqlashni murakkablashtiradi. Siyosiy motivatsiya bilan o‘zgargan “Lenin”, “Kommunizm”, “Sovet”, “Oktyabr”, “Krasnogorsk” kabi toponimlar mustaqillikdan so‘ng “Oqtepa”, “Yangihayot”, “Muqumiy”, “Do‘stlik”, “Yangiariq” kabi nomlar bilan almashtirildi. Bu esa toponimlarning tabiiy tarixiy taraqqiyoti bilan siyosiy intervensiya o‘rtasidagi farqni ilmiy tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Transliteratsiya masalasi ham toponimlarni o'rganishda muhim to'siqlardan biridir. Kirill, lotin va xalqaro transliteratsiya tizimlari o'rtasidagi farqlar bir toponimning bir necha variantda uchrashiga sabab bo'ladi. Masalan, "Qo'qon–Kokand–Kokhon–Khokan" kabi ko'rinishlar tadqiqotchilarni chalkashtirishi mumkin. Bu nomlarning qaysi biri tarixiy, qaysi biri fonetik moslashuv, qaysi biri siyosiy ta'sir natijasi ekanini aniqlash ilmiy izlanishlarni bir muncha murakkablashtiradi. A.Qayumovning fikricha, toponimlarni standartlashtirish milliy til siyosatining muhim qismi bo'lib, ilmiy tadqiqotlarning aniqligi ham aynan normativ yondashuvga bog'liq.

O'zbek olimlari orasida toponimika bo'yicha tadqiqot olib borgan N. Jo'raev, S.Qorayev, B.O'rinboevlarning ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Ularning fikricha, o'zbek toponimiyasining asosiy muammosi — tarixiy manbalar yetishmovchiligi va mavjud ma'lumotlarning tartibsiz saqlanganligidir. Shuning uchun ular toponimlarni tizimli ravishda o'rganish, xaritalash, etnografik materiallar yig'ish, mahalliy aholi og'zaki ma'lumotlarini ilmiy verifikatsiyadan o'tkazish zaruriyatini qayd etadilar. Bu yondashuv toponimlarning asl shakli, kelib chiqishi hamda tarixiy ma'nosini tiklashda muhim vosita bo'la oladi.

Toponimika fani bugungi kunda yangi bosqichga kirgan: raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, fazoviy modellashtirish va kompyuter lingvistikasi yordamida joy nomlarini qayta ko'rib chiqish imkoniyatlari paydo bo'lgan. Ammo bu imkoniyatlar hali to'liq ishga solingan emas. O'zbek toponimikasida yagona raqamli korpusning yo'qligi, toponimlarning ilmiy xaritalarining yetishmasligi, tarixiy ma'lumotlarning raqamlashtirilmagan holati nazariy tadqiqotlarning izchilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ilmiy metodologiyaning yanada takomillashtirilishini, xalqaro tajribani integratsiya qilishni, yangi ilmiy paradigmalarga asoslangan tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, toponimlar til tizimida alohida o'rin egallovchi murakkab lingvistik birliklar bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi ko'plab omillar – tarixiy, etnik, ijtimoiy, siyosiy va geografik jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Toponimlar orqali xalqning qadimiy tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlar va mentaliteti aks etadi, shu bois ular lingvokulturologik jihatdan ham muhim tadqiqot obyektidir. Maqolada ko'rib chiqilgan nazariy muammolar – toponimlarning lingvistik tabiati, etimologik rekonstruksiya, tasniflash murakkabligi, transliteratsiya va standartlashtirish masalalari – ushbu sohada hali ham to'liq yechim topmagan dolzarb masalalar ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, toponimlarning ko'p qatlamli va ko'p tilli tabiati ularni ilmiy jihatdan tahlil qilishni murakkablashtiradi. Shuningdek, zamonaviy metodologik yondashuvlar, xususan geoinformatsion tizimlar (GIS), raqamli lingvistika va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish toponimik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, toponimlarni ilmiy o'rganish kompleks, tizimli va ko'p fanli yondashuvni talab etadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar

toponimik korpus yaratish, ma'lumotlarni raqamlashtirish va xalqaro tajribani joriy etish asosida yanada rivojlantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 2007. – 368 с.
2. Никонов В.А. Введение в топонимику. – Москва: Наука, 1965. – 180 с.
3. Мурзаев Е.М. Географические названия мира. – Москва: Мысль, 1982. – 304 с.
4. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – Москва: Аспект Пресс, 2005. – 536 с.
5. Матвеев А.К. Топонимика и этимология. – Москва: Наука, 1984. – 220 с.
6. Потеня А.А. Мысль и язык. – Москва: Лабиринт, 1999. – 300 с.
7. Raхmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b.
8. Qayumov A. O'zbek onomastikasi muammolari. – Toshkent: Fan, 2010. – 240 b.
9. Jo'raev N. O'zbek toponimikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 200 b.
10. Qorayev S. Toponimika va geografiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. – 180 b.
11. O'rinboev B. O'zbek toponimiyasining lingvistik tahlili. – Toshkent: Fan, 2012. – 220 b.
12. Nazarova N. Onomastika va uning zamonaviy yo'nalishlari // Ilmiy axborot. – 2023. – №5. – B. 45–52.

